

QUR'ONNING TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8045139>

Bakhodir Pirmukhamedov

Senior teacher, Chair of Azhar Arabic language and literature,

International Islamic Academy of Uzbekistan.

11, A.Kadiri str. 100011, Tashkent, Uzbekistan.

E-mail: bohodir.pir@mail.ru

Annotatsiya.

Alloh tomonidan butun insoniyatga nozil qilingan Qur'on karim hozirgi kungacha boshqa tillarga tarjima qilinib kelinmoqda. Maqolaning asosiy qismida Qur'on karimning tarjima qilish o'zining tilidan qanday farq qilishi haqida buyuk olim va mutaxassislar fikrlari keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar.

Qur'on, i'jaz, oyatlar ohangi, balog'at, fasohat, tafsir, ta'vil, so'zma-so'z tarjima, ma'naviy tarjima, she'riy tarjima.

Qur'on Alloh tomonidan butun insoniyatga nozil qilingan muqaddas kitobdir. Ilmiy tomondan yondashadigan bo'lsak, Qur'on – arab yozma adabiyotining eng mo'tabar manbasiga, Qur'on tili esa-badiiy tilning poetik etaloniga aylandi. Arab filologlari ortidan musulmon sharqi mamlakatlarida "I'jazu-l-Qur'an", ya'ni "Qur'on mo'jizasi" atamasi keng tarqalgan¹⁶⁵.

"I'jaz" so'zining lug'aviy ma'nosiga kelsak, bu so'z bir necha ma'nolarni anglatadi, ya'ni, birinchisi, "inson ifodalashga o'z bo'lgan, ma'no va uslubda nozil bo'lgan" bo'lsa, keying ma'nosi, "biron-bir jonzot bu Kitobdek kitobni keltira olmasligi va barcha ahkomlarini to'liq tushuna olmasligi"ni bildiradi. Qur'onni boshqa tilga tarjima qilishning naqadar mashaqqatli ekanligi shu ma'lumotlarda yaqqol ko'rinadi.

Qur'on tarjimasiga to'xtalishdan oldin tarjima va uni qanday bo'lishi kerakligi haqidagi ba'zi fikrlar bilan tanishsak. XX asrning buyuk adiblaridan biri Umberto Eko tarjima nima, degan savolga javob berarkan, u "aynan aytish", deydi. Ya'ni original tildagi matnni har qanday boshqa tilda aynan aytish, to'g'rirog'i, aynan ifodalash deb hisoblagan.

¹⁶⁵ Mullasodiqova Nigora Muramanovna. Qur'onda "ma'oniyligi"ning lingvopoetik asoslari: filol. fanlari falsafa doktori.(Phd) dis....avtoref. 24.00.04-Mumtoz sharq adabiyoti va manbashunosligi mutax..T.: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2020. 46 bet

Qur'on tarjimasiga kelsak, uni boshqa tillarga tarjima qilish bo'yicha olimlar ikki guruhga bo'linishgan:

1. Tarjima qilinishiga qarshilar fikricha, tarjimonlar oyatlarning ohangi, balog'ati va mo'jizakorligini to'liq ifodalay olmaydilar. Shuningdek, arab bo'lmagan tarjimonlar arab tilini tushunishlari cheklangan darajada bo'lganligi, oyatlarni nozil bo'lish sabablarini bilmasliklari, hadis va tafsir kitoblari bo'yicha oz bilimiga ega ekanliklaridan, ularning tarjimalari ifoda va til xususiyatlariga ega bo'lmagan quruq matndan iborat tarjima bo'ladi¹⁶⁶.

2. Tarjima qilishini qo'llab chiquvchilarning fikricha esa, Islom dini dunyoning beshta qit'asida tarqalishi kerakligi va u yerlardagi afrikalik, osiyolik, yevropalik va boshqalar Qur'on hukmlarini o'z tillarida tushunishlari kerak. Fikrlarini qo'llash uchun ikki narsani dalil sifatida keltiradilar:

Birinchisi, uni Payg'ambar (s.a.v.) davrida fors tiliga tarjima qilinganini aytib, Islomni qabul qilgan forslar va undan keyin ba'zi hukmdorlarning iltimosiga binoan, Salmon al-Forsiy "Fotiha" surasini tarjima qilgani;

Ikkinchisi esa Qur'onning o'zida Rasululloh (s.a.v.) butun insoniyatga yuborilganligi yozilgani, shuning uchun Qur'on turli xil xalqlarning tillari orqali butun insoniyatga murojaat qilish zarurligini ta'kidlaydilar. Shuning uchun, 1936-yilda Al-Azhar, Qur'on matnining o'zini emas, balki Qur'on ma'nolarini tarjima qilishga ruxsat beradigan fatvo chiqardi¹⁶⁷.

Islom ulamolari hazrat Tantoviy va hazrat Zarqoviy Qur'onni tafsir qilganda iloji boricha sodda va shu bilan birga aniq qilib tushuntirishga da'vat etadilar. Suyutiy, Ibn Battol kabi ulug' allomalar ilohiy kitobni boshqa tillarga tarjima qilish mumkin, ammo bunda bir muhim shartga rioya qilish darkor deyidilar. Birinchidan, asl matnni aniq va so'zma-so'z berib, uning ostida boshqa tilga o'girilgan ma'nolarini aks ettirish lozim, mana shu eng to'g'ri yo'l, deb aytganlar. Bu borada rus adibi V.G. Belinskiy (1811-1848) shunday deydi:

"Tarjimani asl nusxaga yaqinligi so'zma-so'z ifodalash bilan emas, balki uning ruhiyatini yaratishdan iborat. Har bir til, uning o'ziga xos vositalari va xususiyatlariga ega. Boshqa tasvir yoki iborani to'g'ri yetkazish uchun tarjimada ba'zan ular butunlay o'zgarishi kerak¹⁶⁸".

¹⁶⁶ مُحَمَّد الصَّالِح بِنْدَاق، المَسْتَشْرِقُونَ وَتَرْجُمَةُ الْقُرْآنِ الْكَرِيمِ. - بِيْرُوت: دار الأفاق الجديدة. 1983. - ص. 85
¹⁶⁷ مُحَمَّد بَهَاء الدِّين حَسِين. تَرْجُمَةُ الْقُرْآنِ الْكَرِيمِ: حَكْمَهَا، وَأَرَاءُ الْعُلَمَاءِ فِيهَا. - شَيْتَاغُونْغ: دَرَسَاتُ الْجَامِعَةِ الْإِسْلَامِيَّةِ الْعِلْمِيَّةِ. 2006. دَيْسَمْبِر. المَجْلَد الثَّلَاث. - ص. 98

¹⁶⁸ Аля Дин Фарахат Х. Русская школа перевода Корана (на материале переводов с арабского языка): автореф. дис. ... канд. филол. наук: спец. 10.02.01 –русский язык. – М.: Институт русского языка им. А.С. Пушкина, 1996. – С. 20

Shunday ekan, Qur'on yoki arab tilidagi boshqa badiiy asarni so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi. Tarjimon Qur'onni tarjima qilayotganda uni Islom dinining muqaddas kitobi ekanligi va Alloh suralarni qanday sharoitda farishta Jabroil orqali Muhammad (s.a.v) payg'ambarga nozil qilganligini (sabab-u-nuzul) bilishi kerak.

Qur'on tarjimasiga qo'l urgan tarjimon quyidagi muhim omillarni hisobga olishi kerak. U avvalombor, fiqh, siyrat (Muhammad payg'ambarning tarjimai holi) tarix ilmlari bo'yicha juda keng bilimga ega bo'lishi kerak. Boshqa tomondan, tarjimon Arabiston yarim orolida Qur'on nozil bo'lgan paytda tarqalgan arab tili-uning fasohati, balog'ati va arab she'riyatini yaxshi bilishi kerak.

Qur'on matni boshqa barcha arab adabiy matnlardan ajralib turadigan xususiyatlarga ega. Qur'on matnidagi arabcha jumla insonda turli xil tasavvurlarni uyg'otishi mumkin. Qur'on tafsirlari bo'yich mutaxassis olimlar, mana Qur'onni nozil bo'lganiga 14 asrdan ko'proq vaqt o'tishiga qaramay, hanuzgacha Qur'on suralarining yangi ma'nolarini kashf qilmoqdalar.

Qur'on tarjimasining quyidagi turlari mavjud:

1. So'zma-so'z tarjima, ya'ni Kalomni bir tildan ikkinchi tilga, nazm va tartibini, asl ma'noning saqlanishiga rioya qilgan holda o'girish. Qur'onning so'zma-so'z tarjimasini ham ikki usulda bajariladi.

Birinchi usul- "tarjima bilmisl" ya'ni, "aslga o'xshash tarjima" deyiladi. Bunda, oyatlarning har bir so'zi muqobiliga boshqa lug'at so'zlari qo'yiladi, oyatlarning va undagi so'zlarning nazm va tartibi o'zgarmaydi. Hatto asl matndan sezilib turgan balog'at va fasohat ham o'zgarmagandek tuyuladi. (Bunday tarjimaga Oltinxon To'ra (vatandoshimiz Mahmud Taroziy) tarjimasini misol qilishimiz mumkin.

Ikkinchi usul-"tarjima big'ayril misl", ya'ni, "aslga o'xshamagan tarjima" deyiladi. Bunda tarjimon Qur'on nazmiga e'tibor qilmagan qolda, toqati yetganicha oyatlar mazmunini boshqa tilga o'girib beradi. Bunday tarjima bashar so'zida mumkin bo'lsa ham, Allohning Kalomida mumkin emas, chunki, Alloh Kalomining nazmi buziladi va hurmati ketib qoladi.

2. Qur'onning ma'naviy tarjimasini uning oyatlarini boshqa tilda sharhlab, ma'nolarini bayon qilib berishdir. Bunday tarjimada oyatlarning tartibi va murod bo'lgan ma'nolarining mukammalligi shart qilinmaydi. So'zma-so'z tarjima bilan ma'naviy tarjimaning farqini quyidagi oyatning misolida ko'rishimiz mumkin:

وَلَا تَجْعَلْ يَدَكَ مَغْلُولَةً إِلَىٰ عُنُقِكَ وَلَا تَبْسُطْهَا كُلَّ الْبَسْطِ فَتَقْعُدَ مَلُومًا مَّحْسُورًا (29)

Ushbu oyati karimani agar so'zma-so'z tarjima qilinsa, Alloh iroda qilgan ma'no chiqmaydi. Aksincha, "Qo'lingni bo'yningga bog'lab qo'yma va uni juda

uzun qilib cho'zma" degan noaniq va kulgili ma'no hosil bo'ladi. Agar ma'naviy tarjima qilinsa, "Xayru ehsonda haddan ortiq ziqnalik qilma va isrofgarchilikka ham yo'l qo'yma" degan hammaga tushunarli ma'no kelib chiqadi¹⁶⁹ (Al-Isro, 29).

3. Qur'onni tafsir orqali tarjimasi, bu Qur'on ma'nosini tarjima qilinyotgan tilning adabiy tilida yetkaziladigan qisqa tafsir. Bunda tarjimon oldida arab matning sintaktik tuzilishi va lug'aviy xususiyatlarini ko'paytirish vazifasi turmaydi. U, avvalo, oyatlarning mazmun-mohiyatini ochib berishga, ulardan kelib chiqadigan xulosalarni ko'rsatishga intiladi.

4. She'riy tarjima - bu Qur'onning asosiy ma'nolarining ohangi va qofiyani saqlab bayon qilish. Bunday tarjima tarjimondan nafaqat sura ma'nolari va nozil bo'lish sabablarini bilishni, balki undan she'riy iste'dod va she'r yozish san'atini bilishni ham talab qiladi. Bunday tarjima turi eng qiyin va ayni paytda eng ifodali tarjima turi hisoblanadi. Qur'onning she'riy tarjimalarining asosiy kamchiligi - bu muallif tarjmani o'quvchiga yetarli darajada badiiy yetkazayotganida Qur'on suralari erkin tarjima qilishidir. Qur'onni she'riy tarjima qilingan eng mashhur tarjimalardan biri, bu rus sharqshunosi V.M. Poroxova tomonidan qilingan tarjimadir.

Yuqorida aytib o'tilgandek, Qur'on tarjimasi juda ham mas'uliyatli va o'ta murakkab vazifadir. Mas'uliyati shundaki, chet tiliga tarjima qilingan matn o'quvchisi sura va oyatlarning ma'nolari tarjima qilinganiga e'tibor bermaydi, balki ular xuddi shu ma'noda nozil bo'lgan deb tushunadi. Murakkabligi esa arab tilidagi so'zlarni semantik ma'nolarining turli xilligi, Yevropa xalqlari madaniyati va tushunchasiga begona so'zlarni tarjima qilish va shunga o'xshash muammolarda aks etadi. Ba'zida Qur'on va diniy matndagi tarjimalar bir tilda tarjima qilingan bo'lsa ham ta'siri jihatidan turli xil uslubda va ma'noda tarjima qilinadi. Bunga misol qilib "Maorij" surasining 8-oyatini) ko'rib chiqamiz:

يَوْمَ تَكُونُ السَّمَاءُ كَالْمُهْلِ

1. "U kunda osmon yog'ning quyqasidek bo'lib qolur". (Abdulaziz Mansur tarjimasi, 588-b.)

2. "В тот день, когда небо будет как медь расплавленная". (L.Krachkovskiy tarjimasi, 471-s.)

3. "U kunda osmon eritilgan mis kabi bo'lib qolur". (Alouddin Mansur tarjimasi, 458-b.)

4. "Тот День, Когда расплавленной медью станет небо". (Valeriya Poroxova tarjimasi, 613-b.)

¹⁶⁹ Obidov R. Qur'on va tafsir ilmlari fanidan o'qiladigan ma'ruzalar matni. – T.: Toshkent Islom universiteti, 2003. – S. 57

5. "Ul kun osmon bo'lur eritilgan mis kabi". (Sayyid Taroziy tarjiması).

6. "В тот день небо будет подобно расплавленному серебру". (Sumayya Afifiy va Al-Mansiy tarjiması, 1168-b).

7. "В тот день когда небо станет подобно расплавленному металлу (или усадку масла, или кровавому гною)". (Elmir Kuliev tarjiması. c.574)

Yuqoridagi misolda "كالمهل" (kal-muhl) so'zi har bir tarjimon tomonidan turli tarjima qilingani, ba'zi ma'nolar bir-biriga yaqin bo'lsa, ba'zilarida muvofiqlik ko'rinmaydi. O'zbek tiliga tarjima qilinayotgan diniy matnlarda, arab tilidagi so'zni o'zbek tilidagi muqobili berilmay uni transkripsiyasi beriladi, bu esa o'zbek o'quvchisida tushunmovchiliklar keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Qur'on va boshqa yo'nalishdagi diniy adabiyotlarni tarjima qilishda, shu yo'nalishga ixtisoslashgan tarjimonlarni tayyorlash, o'zbek tili filologlari va diniy ilm olimalari bilan birga diniy so'z va atamalarning umum qabul qilingan va ko'pchilikka tushunarli bo'lgan muqobillarini ishlab chiqish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Komilov N. Bu qadimiy san'at. – Toshkent, 1988.

2. Musaev Q. "Tarjima nazariyasi". – Toshkent: Fan, 2004

3. Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (O'quv qo'llanma). – Toshkent, 2012.

4. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.

5. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.

6. Sirojiddinov Sh., Odilova G., Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2011.

7. Обидов Р. Куръон ва тафсир илмлари фанидан ўқиладиган маърузалар матни. – Т.: Тошкент Ислон университети, 2003

8. Мулласодиқова Нигора Мурамановна. Куръонда "маъоний илми"нинг лингвопоэтик асослари: филол. фанлари фалсафа доктори. (Phd) дис....автореф. 24.00.04-Мумтоз шарқ адабиёти ва манбашунослиги мутах..Т.:Ўзбекистон халқаро ислон академияси, 2020

XORIY ADABIYOTI:

7. Комиссаров В. Н. Теория перевода (Лингвистические аспекты): учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. – М.: Высш. шк., 1990.

8. Комиссаров В. Н. Культурно-этнографическая концепция перевода // Сб. научных трудов МГПИИЯ. – № 375. 1991.

9. Аля Дин Фарахат Х. Русская школа перевода Корана (на материале переводов с арабского языка): автореф. дис. ... канд. филол. наук: спец. 10.02.01 –русский язык. – М.: Институт русского языка им. А.С.

Пушкина, 1996

10. مُحَمَّد الصَّالِح بِنْدَاق، المَسْتَشْرِقُونَ وَتَرْجُمَةُ الْقُرْآنِ الْكَرِيمِ. – بيروت: دار الآفاق الجديدة. 1983

11. محمد بهاء الدين حسين. ترجمة القرآن الكريم: حكمها، وآراء العلماء فيها. – شيتاغونغ: دراسات الجامعة

الإسلامية العلمية. 2006. ديسمبر. المجلد الثالث.